



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

4-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 4 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI .....	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI .....	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR .....	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) .....	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI .....	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy) .....	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI .....	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA) .....	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI .....	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR .....	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI .....	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI .....	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI .....	93-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH .....	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) .....	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI .....	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ....	165-169

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI .....	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ .....	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI .....	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI .....	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI .....	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI .....	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI .....	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI .....	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT .....	224-231
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI .....	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ .....	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA .....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV .....	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI .....	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION .....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS .....	282-285

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION .....	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI" .....	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI .....	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI .....	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI .....	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR .....	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI .....	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI .....	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ .....	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR" .....	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR .....	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI .....	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI .....	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI .....	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI .....	458-463
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI .....	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR .....	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR .....	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI .....	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI .....	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ .....	497-501

**Received:** 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***FORMS OF FANTASTIC SELF-EXPRESSION AND ITS ARTISTRY****Mirsanova Mokhira Husniddin qizi,**

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,

Teacher of the department of "Primary education"

E-mail: [moxiramiranova@gmail.combek](mailto:moxiramiranova@gmail.combek)

**Abstract.** This article will focus on fiction, on the fantastic image in Uzbek children's literature, on the influence on the development of fantasy of such images as symbolism, metaphor, fantastic dreams, the change of space and time from the forms of its expression, about famous works based on the fiction of Uzbek children's literature of the period of independence, and about their specific image style. The creator's skill in combining fiction and adventure reality is also mentioned.

**Keywords:** adventure, fiction, fantastic image, symbolism, metaphor, fantastic dreams, change of space and time.

**FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI****Mirnova Moxira Xusniddin qizi,**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida o'qituvchi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fantastika haqida, o'zbek bolalar adabiyotida fantastik tasvir haqida, uning ifoda shakllaridan simvolizm, metafora, fantastik tushlar, makon va zamon o'zgarishi kabi tasvirlarning fantaziya rivojidagi ta'siri xususida, istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotidagi fantastika asosiga qurilgan mashhur asarlar va ularning o'ziga xos tasvir uslubi xususida so'z yuritamiz. Shuningdek, fantastika va sarguzasht voqelikni uyg'unlashtirishda ijodkor mahorati xususida ham so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** sarguzasht, fantastika, fantastik tasvir, simvolizm, metafora, fantastik tushlar, makon va zamon o'zgarishi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N73>

**Kirish.** O'zbek bolalar adabiyotida fantastik tasvir ifodasi va bu yo'nalishda ijod qilinayotgan zamonaviy o'zbek adabiyoti durdonalariga diqqat qaratish juda muhim. Chunki fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davr bolalari uchun davr talabidan kelib chiqib asarlar yozish yozuvchilardan ham alohida e'tibor talab qilmoqda. Ushbu maqolamizda fantastik ifoda shakllari va ularning qo'llanilishi yuzasidan mulohazalarimizni ma'lum qilmoqchimiz. Fantastik ifoda shakllaridan simvolizm, metafora, fantastik tushlar, makon va zamon o'zgarishi kabi tasvirlarga diqqat qaratiladi. Bunda biz S. Qur'onovning "Galaktikada bir kun" asaridagi ba'zi o'rinnarni tahlilga tortamiz.[2, 160-b]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Fantastik tasvir ifodasi – adabiyot va san'atda odatdagi real voqelikdan tashqaridagi tasavvurlarni ifodalash usulidir. Fantastik ifoda orqali mualliflar tabiiy dunyo va insoniyatning imkoniyatlarini kengaytirib, o'ylab topilgan yoki imkoniyatdan boshqa holatlarni tasvirlaydi. Fantaziyaning kuchi bilan buyuk ixtiolar, kashfiyotlar qilinadi, badiiy adabiyotda esa buyuk asarlar yaratiladi.

Demakki, so'z bemaqsad, bema'no orzu haqida emas, balki, hayotiy asosga ega bo'lgan orzu, xayolot haqida bormoqda. Bu esa o'z navbatida inson mehnati, insoniyatning butun yaratuvchanlik faoliyati bilan bog'liqdir.

Lug'atda fantastika so'zining ma'nosi shunday keltiriladi:

*"Fantastika [yunoncha, phantastike- xayol qilish san'ati, qobiliyat] xayolda, tasavvurda tug'ilgan, g'aroyib, g'ayritabiiy hodisa, obraz hamda ularning xayoliy tasviri. [1, 326-bet]*

"Tasavvurda tug'ilgan" jumlasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, insonning tasavvur qilish, xayol qilish qobiliyatining kengligi natijasida yuzaga keladigan, paydo bo'ladigan, g'ayri tabiiy hodisalar natijasi deb tahlil qilish mumkin. Bilamizki, har qanday ijod mahsuli tug'ilishga qiyos qilinadi, shu jihatdan tasavvurda paydo bo'lish jumlasini tasavvurda tug'ilgan tarzda ham ifodalanadi. Inson fantaziyasi uning tarixi singari qadimiydir. Biroq, fantaziya qilish qobiliyati inson bilan birga tug'iladi, deb qarash noto'g'ri. Chunki, tafakkur singari u turli sabablar: obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, imkoniyatlар va ehtiyojlar, lekin eng asosiysi ijtimoiy-kommunikativ sabablar ta'siri ostida paydo bo'lgan. Jamiyatning ibridoiy rivojlanish davrida inson fantaziyasi sodda va oddiy bo'lgan. U darajada boy ham bo'lman. Ijtimoiy ong evolyutsiyasi, bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning boshqasi bilan almashuvi inson dunyoqarashini o'zgartirdi, fikrlashini kengaytirdi va chuqurlashtirdi.

Natijada inson xayoloti murakkab va boy, "konstruktiv" bo'la boshlagan. Shu boisdan, qadimda samarasiz, ba'zan amalga oshmaydigan orzulari bugungi haqiqatga aylandi. S. Quronovning "Galaktikada bir kun" asaridagi ba'zi o'rirlarga diqqat qaratiladi.[2, 160-b]

Fantastik tasvirda zamon va makon o'zgarishi bilan bog'liq tasvirlarga jahon adabiyoti durdonalaridan biri, ingliz yozuvchisi G.G. Uellsning "Vaqt mashinasi" asarini misol qilish mumkin. Asarda vaqtning deformatsiyasi(o'zgarishi) asosiy tema bo'lib, zamon sayohati orqali turli tarixiy davrlar ko'rsatiladi. Shu o'rinda Gerbert George Uells(1866-1946)ning jahon adabiyotida fantastika janri asoschilaridan biri ekanligini ta'kidlash lozim. U bu janr rivoji uchun "Ko'rinnmas odam", "Dunyo urushi", "Doktor Moro oroli" va yuqorida biz qayd etib o'tgan "Vaqt mashinasi" asarları bilan munosib hissa qo'shgan. Bu asarlar nafaqat ingliz adabiyotining balki jahon adabiyotining ham durdonalari hisoblanadi.[3, 136-bet]

Tahlillarni olib borishda qiyosiy tahlil metodidan foydalilaniladi

**Muhokama.** O'zbek xalq og'zaki ijodida uchar gilamlar, qanotli otlar, ochil dasturxonlar, tiriklik suvi va boshqalar to'g'risida orzu qilgan xalqlar, qat'iyatli mehnat, iste'dod va aqlning tirishqoqligi natijasida insoniyatga vafodorlik bilan xizmat qilayotgan fan va texnika yutuqlarini: samolyot, raketa, tibbiy kashfiyotlarni yaratdi. Sivilizatsiyaning keyingi rivojlanish jarayonlari kelajakda insoniyat fantastikasining yaratuvchilik imkoniyatlarining beqiyosligi va cheksizligidan dalolat bermoqda.

Haqiqiy ma'nodagi ilmiy fantastika paydo bo'lganiga qadar, qadimiy turkiy xalqlar og'zaki va yozma adabiyotlarida fantastika elementlari, ilohiy kuch-qudratga ega bo'lgan fantastik obrazlarni tasvirlab yaratilgan.

Fantastik tasvir ustunlik qiluvchi asarlarda o'ziga xos tilda ifodalangan tasvirlar, obrazlar va voqealar rivojining badiiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan muhim jihatlar yoritiladi. Bilamizki, fantastik adabiyot real hayotdan tashqaridagi, kutilmagan va g'ayri tabiiy hodisalarni tasvirlaydi, bu esa unga xos ifoda shakllarini yaratishga olib keladi. Fantastik ifoda shakllari adabiyotda yangi va g'ayrioddiy dunyolar, voqealar va obrazlar yaratishda yordam beradi. Bu o'rinda bir necha jihatlarni alohida ta'kidlab o'tmoq joiz:

– Oddiylikdan tashqarida bo'lish: Fantastik ifodalar odatdagi hayotdan farq qiladi. Bu tabiat qonunlariga, fizikaga yoki realistik voqealarga zid bo'lishi mumkin.

– Tasavvur kuchi: Fantastik ifoda muallifning tasavvuri orqali yaratiladi. Unda koinotda mavjud bo'limgan olamlar, maxluqlar, voqealar yoki hayot ko'rinishlari bo'lishi mumkin.

– Simvolizm va metaforalar: Fantastik ifoda ko'pincha chuqur ramziy yoki metaforik ma'no anglatadi. U odamlarning ichki olami yoki ijtimoiy muammolarni tasvirlashda ishlataladi.

Metafora va simvolizm haqida o'z mulohazalarimizni ma'lum qiladigan bo'lsak, fantastik asarlarda keng tarqalgan ifoda shakllaridan biri hisoblanadi. Bu shakllar yordamida fantastik ifoda yangi, g'ayrioddiy tasavvurlar yaratishga yordam beradi. Ma'lumki, metaforadan narsalarni bevosita taqqoslash orqali fantastik asarda tushunchalar va voqealar orasida o'zaro o'xshashliklarni yuzaga keltirishda foydalaniлади. Masalan, "ko'zлari yulduzdek porladi" yoki "o'rtada devor kabi mag'rur bir hech narsa yo'q edi" kabi ifodalar o'quvchi tasavvurida o'zgacha holatni, sehrli yoki ajablanarli voqealarini paydo qiladi. Simvolizm esa fantastik olamda har bir obyekt yoki voqeani aks ettiradi. Bunda aniq belgilarga o'zgacha ma'no beriladi, "qor" — o'lim ma'nosini, "yulduz" — umidni ifodalab keladi.

**Fantastik tushlarni** avvalo fantastik tasvir uchun juda ko'p qo'llanishini ta'kidlash lozim. Ushbu janrda ko'p hollarda qahramonlarning tushlari yoki real va noreal dunyo o'rtasidagi chegarani buzadi. Asar qahramonlari g'aroyib tush ko'radi va bu tushda ko'z ko'rib qulqoq eshitmagan sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Tushlar tasvirlangan hollarda badiiy ifoda shakli yanada murakkablashadi. Bu yerda voqealar va obrazlar tushda yoki ichki olamda mavjud bo'lib, o'quvchiga boshqacha, o'zgacha reallikni qabul qilishni taklif etgandek bo'ladi bu esa o'quvchini hayratga solib, qiziqishini yanada oshiradi. Masalan, Sa'dulla Qur'onovning "Gallaktikada bir kun" asarini olsak, asar qahramoni Ahmadning koinotda uchar kemada uchib yurganligi haqidagi **tush** tasviri bilan boshlanib, oxirida o'sha tush bilan bog'liq tush ko'rib uyg'onishi bilan tugaydi.

"2036-yil, 25-iyun. Qushlarning deraza ortidan kelayotgan chug'ur-chug'ur ovozi, ona-sonda uchib o'tayotgan aeromashinalarning guvullagan tovushi tong otganidan darak bersa-da, Ahmad bunga parvo qilmas – shirin tushlar og'ushida uxlari edi. ...kecha ko'rgan tushida Marsning o'nqir-cho'nqir yuzasida o'zga sayyorraliklar bilan futbol o'ynagan emish. Bugun esa Saturnning yo'ldoshi Titanga qarab uchgan... Ana, uning kemasini Titanning bo'ronli atmosferasini yorib o'tmoqda. Kema atmosfera bosimiga arang dosh berar va juda qattiq silkinardi. Shu payt abjir fazogirimiz zudlik bilan qo'nish kerakligini anglatdi... Tush ko'rayotgan Ahmadning o'ngida ham qo'l va oyoqlari xuddi mashina haydayotganday harakatlanar, yuzlari esa bujmayib ketardi. Endi u o'ngida gapirishni ham boshlab yubordi:

– Yer, meni eshityapsizmi? Kema Titanga qo'nish uchun tayyor. Qo'nishga ruxsat bering!..

- Sizni tushundim, Yer! Albatta, himoya kamarlarini taqib olganman.
- Qo'nish: 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1...
- Ahmad, turaqol, o'g'lim..[2, 5-bet]

Asar yuqoridagi tush voqeasi bilan boshlanadi. Asar yakunida esa Ahmadning uyqudan uyg'onishi b.n tugaydi. Ikkala tushda ham "Ixtirochilar tanlovi" bo'ladigan kun tongi tasvirlangan.

“– Ahmad, turaqol o'g'lim. Oyisining ovozini eshitgan Ahmad sapchib o'rnidan turdi. – Oyi, Oyijon nahotki bu sizsiz?! – oyisining bo'yniga osilib mahkam quchoqlab oldi Ahmad. –

Senga nima bo'ldi, o'g'lim, yomon tush ko'rdingmi deyman? "Tush" so'zini eshitgan Ahmad bir muddat o'ylanib qoldi. "Eh, yaxshiyam tushim ekan! Voy-bo'o', tushimda qayerlarga borib kelmadim-a", yuzida tabassum bilan hammasini eslay boshladi u." [2, 156-bet]

Yozuvchi bu o'rinda tush tasviridan mahorat bilan foydalangan. Asarni o'qish jarayonida bunga amin bo'lamiz. Real voqealashadi va asardan ko'zlangan maqsadning ifodalanishida badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Zamonning tezlashishi, sekinlashishi yoki xuddi "orqaga qaytish" kabi hodisalar orqali fantastik ifoda yanada go'zallashadi, bu jarayon zamon masalasidagi asosiy jihat hisoblanadi. Bunda vaqtini boshqarish, kelajak yoki o'tmishdagi voqealarga qaytish kabi g'oyalar o'quvchini ajablantiradi. Vaqtini boshqarish-juda qiziq jarayon. O'quvchi bu tasvirni mulohaza qilarkan kuchli ta'sirlanadi, men ham shunaqa qila olsam nimalar qilgan bo'lar edim degan fikr ham hayolidan o'tmay qolmaydi.

Misol uchun, O'zbek bolalar adabiyotining yorqin namunalaridan biri S.Quronovning "Galaktikada bir kun" asarida ham zamonlar o'zgaradi. Ahmad Margol ismli o'zga sayyorralikka yordam beradi, koinot bo'y lab sayohat qiladi bu vaqt bir necha yilni tashkil etadi. Ammo ular maqsadiga erishgach vaqt tuynugidan o'tib ortga asarning boshidagi ixtirochilar tanlovi bo'ladigan kunga qaytib qoladi. Aslida Margol bilan o'sha ixtirochilar tanlovida uchrashgan edilar. Ahmadning ixtirosiga odamlar amalga oshmaydigan uydurma deb qarashgan edi. Bu kashfiyotning amalga oshishiga faqat o'sha o'zga sayyorralik do'sti ishonadi va sayyoralararo uchar qurilmani birgalashib yasashadi. Koinot bo'y lab uchib, ko'plab sarguzashtlarni boshidan kechirishadi, moviy toshni topib halokatga uchrayotgan "Salmir" sayyorasini qutqaradi. Biz uchun muhim va qiziq jihat vaqt tuynugidan o'tib o'tmishga qaytib qolishi va har doimgi hayotida davom etishi. Bu jarayonni fantastik tushlar tasviri haqidagi mulohazalarimizda ham qisqacha aytib o'tdik.

**Natijalar.** Fantastik adabiyotda ko'pincha klassik arxetipler yoki xalq afsonalaridan olingen obrazlar ishlataladi. **Arxetipler nima?**- degan savolga oydinlik kiritib olsak:

"Arxetip atamasi yunonchadan olingen bo'lib, "ilk obraz" degan ma'noni bildiradi. Bu atama fanga birinchi marta shveysariyalik olim Karl Gustav Yung tomonidan kiritilgan. U aslida arxetipni psixologiya faniga aloqador termin sifatida ishlab chiqqan edi. Yung arxetiplarning ramziy obrazlarga aylanishi haqida o'z talqinlarini ilgari surdi".[8]

Arxetipni bilib oldik, endi Klassik arxetipler degandachi nimani tushunamiz? Klassik arxetipler adabiyotda doimiy ravishda uchraydigan, kishilik jamiyatining ongidan chuqur o'rinni olgan timsollar, syujetlar yoki xarakterlar shakllaridir. ular insoniyatning umumiyligi ongi va tajribasiga asoslangan bo'lib, asrlar davomida o'zgarib turuvchi, lekin asosiy mohiyatini yo'qotmaydigan obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Bunga mashhur asarlardagi yoki afsonalardagi qahramonlar yoki san'at va madaniyat sohasi vakillari ham kiritilishi mumkin.

Arxetipler nafaqat badiiy adabiyotda, balki kino, mifologiya va xalq ertaklarida ham keng qo'llaniladi. O'zbek adabiyotida ham ushbu arxetiplarni ko'p uchratish mumkin, ayniqsa, sarguzasht va fantastik asarlarda. Yuqorida sanab o'tilgan obrazlar orqali fantastik asarlarning badiiy shakllari rivojlanadi. Masalan, yaxshi va yomon qahramonlar (qahramon va yovuz), dushmanlar (yoki aniq yaxshilik va yomonlikning har qanday simvolik tasvirlari), jodu (yoki

sehr) kabi obrazlar fantastik ifodaning markaziga joylashadi. Bu tasvirlar orqali muammoning universal jihatlari ko'rsatiladi va o'quvchi ongida o'ziga xos badiiy tasavvurlar paydo bo'ladi.

Fantastik asarlarda **badiiy ifoda** – bu til, tasvir, uslub va shakllar orqali fantastik voqealarni o'ziga xos tarzda ko'rsatish, o'quvchini ajoyib, noan'anaviy dunyoqarashga jalb etishdir. Badiiy ifoda shakllari orqali fantastik adabiyotda shunday elementlar tasvirlanadi, ular real hayotdan tashqarida, tushunchalar, tuyg'ular va fikrlar orqali o'zgacha realliklarni yaratadi. Quyidagi parchaga diqqat qilsak:

"Bu joy muzey emas, naq mo'jizalar mamlakatining o'zi edi. Osmonda muallaq uchib yurgan binolar va hovuzlar, tog'dan emas, havoning o'zidan tushib kelayotgan sharsharalar, bog'lar, hashamatli shaharlar, o'yin attraksionlari, gologrammali tasvirlar, uchar likopchalar va boshqa ko'plab g'aroyibotlar aqlni shoshirib qo'yar edi. Bu yerda galaktikaning turli sayyoralaridan kelgan milliardlab sayyoohlар ko'ngilxushlik qilish bilan band edilar. Bu sayyoohlarning shakl-shamoyili turli-tuman bo'lib, ular orasida fildek keladigan beso'naqaylari ham, sichqondek keladigan mittivoylari ham bor. Lekin hech kim hech kimga zarar keltirmas, hamma ahil-inoq vaqt o'tkazardi" [2, 54-bet]

Bu tasvirni o'qigan kitobxon ko'z o'ngida bu manzara jonlangandek bo'ladi. O'quvchi bu manzarani tahlil qilishga aqli shoshadi, ko'z o'ngida "uchar likopchalar", "tog'dan emas, havodan oqib tushayotgan sharsharalar", "Osmonda muallaq uchib yurgan binolar va hovuzlar" turgandek bo'ladi. Buning iloji bormi? Degan savol paydo bo'ladi. Fantastik tasvir uchun ijodkor fantaziysi kuchli bo'lsa, o'quvchiga ham yuqtira oladi. Sarguzasht-fantastik asarlarda bu kabi badiiy ifodalar muhim sanaladi. Estetik badiiyat tushunchasi ham mavjud bo'lib, u fantastik asarlarda badiiy ifoda orqali o'ziga xos tasavvurlar va obrazlar yordamida ko'pincha estetik ma'no va go'zallik ifodalanadi. Bunday badiiy tasvirlar o'quvchiga estetik zavq berib, unga yangi dunyolarni ochib beradi. Fantastik asarlar o'zining tuzilish jihatidan ham badiiy ifodaning eng yuqori shakllaridan biri bo'lib, fantastik obrazlar, voqealar va dunyolar bir butun tizimga joylashtiriladi. Yangi dunyo qurilishi va uning muvozanati o'quvchiga ilmiy yoki falsafiy masalalarni ko'rsatish uchun ishlataladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'zbek bolalar adabiyotida fantastikaga asosiga qurilgan asarlar talaygina. S. Quronovning "Galaktikada bir kun" asaridagi fantastik tasvirlarni, badiiy ifoda vositalarining qo'llanilganligini tahlilga tortdik. Yozuvchi mahorati tahsinga sazovor. Asarda fantasti tasvirlar sarguzasht voqelik bilan birgalikda, uyg'unlikda kechadi. Umuman olganda fantastik ifoda shakllari va uning badiiyati fantastika janrni boshqa adabiyot janrlaridan ajratib turadi. Metafora, simvolizm, vaqt va makonning deformatsiyasi, tushlar va arxetipler kabi shakllar fantastik asarlarda voqealar va obrazlarni ifodalashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Badiiy ifoda orqali fantastik dunyolar o'zgacha estetika, noan'anaviy hissiyotlar va fikrlar bilan to'ldiriladi, o'quvchiga o'zgacha realliklarni qabul qilishni va ularga yuzlanishni taklif etadi.

### Adabiyotlar/Litteratura/References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. // Mas'ul muharrir A. Madvaliyev, T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 326 bet.
2. Quronov S., Galaktikada bir kun, Akademnashr, T.: 2019. 160 b
3. Uells G.G. Vaqt mashinasi, "Ilm-Ziyo-Zakovat", AQSH, 2016-yil, 136 bet
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2007. 3- жилд. – 688 б.

5. Quronov S., Galaktikada bir kun 2-kitob (Koinot javohiri), Akademnashr, T.: 2024. – 216 b.
6. Шайхов Х. Илмийлик ва афсонавийлик муаммолари//Ўзбекистон маданияти газ. 1979, 13 июль
7. Ибрагимова Р. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе. Ташкент, Фан, 1987
8. <https://malumot.ru/arxitip-ilk-obraz-demakdir/>

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 4 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).